

METAFORA VA UNING JAHON VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O'RGANILISH TARIXI

Ubaydullayeva Durdona Rahmonjon

FarDU kata o'qituvchisi QIZI

ubaydullayevadurdonaxon464@gmail.com

Maxkamova Dildora Baxtiyorovna

TATU FF assistant o'qituvchisi

dildoramahkamova83@gmail.com

Sayidov Shukrullo Xaliljonovich

TATU FF assistant o'qituvchisi

Sayidovshukrullo1991@gmail.com

ANNOTATSIYA

Tilshunoslikda metafora haqida yetarlicha izlanishlar olib borilishga qaramay, unga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Chunki tilda so‘zlardan foydalanish uchun so‘zlarning o‘z ma‘nosini bilan bir qatorda ularning majoziy ma‘nolarini ham bilish zarur hisoblandai. Bu o‘z navbatida tilshunoslikda metaforani har tomonlama o‘rganib tadqiq etish zaruriyati borligidan dalolat beradi. Ushbu maqola metaforalarning dunyo va o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi, izohlanishi, o‘xshatishlardan farqi, ularning nutqdai ma’nolari, turlari va shakllanishi haqida ma’lumot beradi.

Kalit so‘zlar: metafora, umumiylar, kognitiv metafora, konseptual metafora, metafora modeli

KIRISH

“Tilshunoslikda metaforalarga bo‘lgan ilk qarashlar qadimgi davrlardan mavjud bo‘lib kelgan. Qadimgi dunyo mutafakkirlari inson metaforani bilish uchun ruhiyat va tabiat haqida yaxshi bilimga, keng dunyoqarashga va inson va dunyo haqida chuqur o‘yay olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak deb hisoblashgan. Masalan, Sitseronnig fikricha metaforalar bu qisqartirilgan o‘xshatishlardir va ular shunday hodisaki, nutqqa maxsus bezak beradi, pardozlaydi, boyitadi va darajasini oshiradi. Aristotelning fikriga ko‘ra esa metaforalar so‘zning shakl o‘zgarishlarida ifodaning boshqa badiiy vositalaridan farq qiladi, yani u ko‘proq ijodkorlikni talab qiladi. Kuantilin metaforani har qanday inson foydalanishi mumkin bo‘lgan tabiatning sovg‘asi deb aytgan.”

O‘tgan asr so‘nggida E.S.Kubryakova "Kognitiv fan bu- dunyoni idrok etish, tasniflash, baholash va tushunish doirasida bilimlarni aks ettirish va saqlashni o‘rganadigan fan"dir deb yozadi. D.Baxronovaning ta’kidicha, metafora metafora bo‘lguncha, olamning oddiy manzarasidan to lisoniy manzaragacha "sayohat" qiladi. So‘z birdaniga metaforaga aylanib qolmaydi. Shu sababli ular o‘ziga tegishli jamiyatning "yuziga", madaniyatning kodiga aylanadi. Jumladan, metaforalarni har bir millat maqol, matal va aforizmlarida, kundalik muloqatlarda qo‘llanilishi muayyan etnosgagina tushunarli sifatlarni, milliy-madaniy belgili kodlarni ifodalaydi.(Baxronova, 2015)

O‘zbek tilshunosligida metafora bo‘yicha yetarlicha ilmiy ishlar tayyorlangan, maqolalar chop etilgan. So‘zimizning isboti G. Kabuljonova o‘zining “Metaforlarning tizimli lingvistik talqini” nomli dissertatsiasida bizning o‘zbek tilimizda metaforalarni rivojlanishini zamonavy tilshunoslik nuqtai nazardan ochib beradilishida ko‘rinadi. Ilmiy ishda metaforaning lingvistik mohiyati, tizimning tabiatи va bog‘liq hodisalar tizimida uning ro‘li, metafora turlari va uning badiiy adabiyotdagi o‘rni yoritib berilgan. O‘zbek tilshunosligida tasviriy voqeylekni turlarga ajratish ham deyarli rus tilshunosligidagi turlarga ajratishga mos keladi. Ozbek tilshunosligida metaforalar nutqqa hissiyot va tasavvur beradigan narsalar va voqeal-hodisalarga asoslangan majoziy manoda ishlatilgan so‘z va so‘z brikmalari turlaridan iborat. M. Yuldashev M.Mirtojiyev va E.Kilichov ilmiy asarlarida ushbu masaladagi ilk ma’lumotlar topililadi. Misol tariqasida, metafora bu ikkita narsa yoki voqeani o‘xshashligiga asoslangan harakat bo‘lib, u nutqning tasviri va tasirchanligi taminlaydi.

Rus tilshunoslari N. Shanskiy, A. Reformatskiy va D. Shmelov metaforali so‘zlarni metafora, metonimya, sinekdoha va bir necha turlarga ajaratishgan. Ularning fikricha metafora badiiy tilning tasirchanligi va ma’lumot berishini o‘sishida eng faol vosita hisoblanadi. Tilshunos R.Kungurov metaforani qiudagicha tasvirlaydi: “Metaforani yashirin o‘xshatish deb nomlash mumkin, lekin u oddiy qiyoshlashdan farq qiladi. A.A.Potebnya aytadi: “metafora bu qisqartirilgan o‘xshatishdir”. Bundan tashqari zamonaviy rus tadqiqotlarining o‘ziga xos xususiyati-metafora tahliliga kognitiv manzarali yondashuvning nazariy va amaliy rivojlanishi bilan harakterlanadi. Siyosiy dunyoni turkumlashtirish va konseptuallashtirishda metafora rolining birlashtiruvchi tavsifini A.N.Baranov, Yu.X.Karaulov, E.S.Kubryakova, T.G.Skrebtsova, A.P.Chudinov, Z.V.Budayev lar asarlarida ko‘proq uchratishimiz mumkin.

Zamonaviy metaforologik nazariyalar: J.Lakoff va M.Johnson konseptual metaforaning klassik nazariyasi, M.Turner va J.Fokonie, J.Grady, asosiy metafora nazariyasi, B.Shpelmanaidr metaforaning izchil modeli, L.Ritchi metafora talqinining bog‘lovchi nazariyasi, A.N.Baranov va Yu.X.Kapaylov, A.P.Chudinov metaforik

modellashtirish nazariyasi va boshqalar. Ushbu yo‘nalishlarning har biri o‘z tarafdarlariga ega, ularning aksariyati o‘zlarining asl g‘oyalarini boyitadi.

M.Blek nuqtai nazaridan metafora dunyoni bilishning yangi usullarini ta’minlovchi “kognitiv vosita” rolini o‘ynaydi. Aynan metafora ko‘rib chiqilayotgan hodisaga boshqacha, prinsipial jihatdan, ya’ni yangi nuqtai nazarni shakllantirishga qodir, ammo bu qobiliyatning salbiy tomoni bor, metafora odamlarning harakatlarini cheklaydigan va ma’lum darajada atrofdagi voqelik haqidagi fikrlar majmuini ifodalananadi. Metaforaning yana bir kognitiv vazifasi yangi ma’no yaratish, yangi fikrlarni ma’lum bir shaklga solishdir. Amerikalik olim Boyd tafakkurning yangi turlari va usullarini ifodalashda, xususan, yangi ilmiy nazariyalarni tushuntirishda metaforalarning muhim roli haqida o‘z fikrini bildiradi. Boydning e’tirof etishicha, metaforada tilning aniqligi yetishmaydi, lekin bunday noaniqlik nafaqat metaforalarga, balki umuman denotatsiyaga (indikatsiyaga) ham xosdir. Boyd nuqtai nazaridan, ilmiy sohada metafora qo‘llanilishining ayrim usullari ko‘proq izohlarga o‘xshaydi, masalan, “atom tuzilishi quyosh tizimining miniyatursasi”. G.Petri va R.Oshlag ham bu masalani o‘rganib, deyarli bir xil xulosaga kelishdi, bu esa metaforaning assosiy vazifasi yangi tushunchalar yoki ilmiy bilimlarni tushunish va taxlil qilish vazifasini osonlashtirish ekanligini ochib berdi. Bu kabi tushunish usuli tanish metafora bilan boshlanadi va asta-sekinlik bilan, bosqichma-bosqich yangi hodisaga yaqinlashadi.

Yondashuvlarning xilma-xilligiga qaramay, tadqiqotchilar hali ham kontseptual metafora nazariyasining individual qoidalarini o‘zgartirib, to‘ldirishda davom etmoqdalar.

J.Zinken voqelikni metaforik idrok etishda shaxsning hissiy-harakat tajribasi muhimligini qayd etib, metaforalarni tahlil qilishda madaniy va milliy qarashlarni hisobga olish zarurligini aytib o‘tadi.Matn ichidagi metaforalarni alohida guruh sifatida ajratib ko‘rsatgan tadqiqotchi, siyosiy voqealarni tushunish uchun ularning g‘oyaviy ahamiyatini ko‘rsatdi.

Bu yondashuv I.Hellstenning umumiyl tuzilmaviy metafora va tarixiy metaforalarni farqlash zarurligi haqidagi g‘oyasiga mos keladi, ularning avlodni tarixiy nomlar va hodisalar zamonaviy siyosiy vaziyatlarga tahmin qilingan. Xuddi shunday pozitsiyani P.Paris egallab, tarixiy metaforalarni alohida guruh sifatida ajratib ko‘rsatadi. Shuni takidlash kerakki, tana onging nazariyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan metaforalar asosan dunyoning turli qismlarida yuzaga keladigan metaforik oqibatlarning parellelligini belgilaydi, ular juda farq qiladi. Shu bilan birga, milliy tarix va madaniyat xususiyatlari metaforalarning milliy o‘ziga xosligini belgilab beradi. Boshqa bir guruh metaforalar esa, odamlarning din, madaniyat va tarix bilan

bog‘langan oddiy tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Keyinchalik metafora haqida boshqa qarashlarni D.Ritchi metaforik talqinning biriktiruvchi nazariyasida taklif qildi.

Ushbu nazariya asoschilari M.Terner va J.Fokonier metaforalash maqsadli sferadan maqsadli sferaga proektsiya qilish bilan cheklanib qolmaydi, degan xulosaga kelishgan. Ushbu nazariya doirasida metaforaga kognitiv yondashuv J.Fokonier tomonidan psixik fazolar nazariyasi va konseptual metafora nazariyasi sintezi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, uning ayrim qoidalari qayta ko‘rib chiqilgan.

Dastlab, M.Terner va J.Fokonier ikki bosqichli metafora modeliga va ko‘p bosqichli metafora modeliga muqobil bo‘lgan modelni taklif qilgan edi. Tadqiqotchilarning fikricha, sfera-manbadan sfera-maqsadgacha bir yo‘nalishli metaforik proektsiya turli xil murakkab, dinamik maxsus vaziyat bo‘lib, uni tushunishda kognitiv metafora nazariyasiga ikki o‘rtadagi bo‘shliqni kiritish kerak bo‘ladi. Shunday qilib, J.Lakoff va M.Johnson nazariyasidagi ikki konseptual sohadan farqli o‘laroq, to‘rtta aqliy bo‘shliqni ko‘rib chiqishni taklif etadi: ikkita boshlang‘ich bo‘shliq (kirish fazosi), umumiy makon (umumiy fazo)va aralash makon (aralash fazo). Garchi manba maydonlarining miqdori ikkitadan oqrtiq bo‘lsa ham, konseptual metafora nazariyasida manba maydonlari manba-sfera va maqsad-sferaga bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Кубрякова Е.С. Языкизнание: на пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. М., 2004. 560 с.
2. Чудинов А. П. Россия в метафорическом зеркале: когнитивное исследование политической метафоры (1991-2000). Екатеринбург, 2001. 238 с.
3. Chilton P., Lakoff G. Foreign PoHcy by Metaphor // Language and Peace /ed. By Ch. S^fta, A. Wenden. L.; N. Y., 2004. P. 37-74.
4. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live by. Chicago, 1980. 242 p.
5. Zinken J. Ideological Imagination: Intertextual and Correlational Metaphors in Political Discourse // Discourse and Society. 2003. Vol. 14(4). P. 507-523.
6. Zinken J. Imagination im Diskurs. Zur Modellierung metaphorischer Kommunikation und Kognition: Dissertation zur Erlangung der Wurde eines Doktors im Fach Linguistik. Bielefeld, 2002. 262 S.
7. Kuzibaevna, O. G. (2021). Analysis of Effective Ways to Develop Students’ Environmental Culture in Foreign Language Teaching. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE*, 2(12), 37-43.
8. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2022/06/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%2051%20%28web%29.pdf#page=89>